



JARROHLIK TARIXI – INSONIYATNING SOG‘LIQ VA HAYOTNI SAQLASH YO‘LIDAGI O‘LKAN IZLANISHIDIR.

Karimova Nargiza Erkinovna

Stomatologiya fakulteti, 203 – guruh

E-mail: karimovanargiza880@gmail.com

Tursunova Gavhar Begmurodovna,

*ijtimoiy va Gumanitar fanlar kafedra o‘qituvchisi, tarix fanlar bo‘yicha falsafa doctor
(PhD)*

Mobil telefoni: +998 91 389 14 66

Dolzarblik: Jarrohlik tarixi insoniyatning eng qadim va jasur tibbiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, uning rivoji turmush tarzi, kasalliklarni anglash va texnologiyalar taraqqiyoti bilan bog‘liq. Qadimgi Misrning Ebers papiruslari va Hindistonning “Sushruta Samhita”si jarrohlik amaliyoti juda qadimdan mavjud ekanini ko‘rsatadi. Sushruta jarrohlikni “inson jasoratining oliy ko‘rinishi” deb baholagan. Ibn Sino, Galen, Paré va Vezaliy kabi allomalar ilmiy g‘oyalari, shuningdek og‘riqsizlantirish, antiseptika va anatomiyaning rivoji zamonaviy jarrohlikning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot materiallari va usullari: Mavzuni yoritishda Gippokrat, Ibn Sino, Galen kabi allomalarning asarlari, Sharq va G‘arb tabobatiga oid manbalar hamda zamonaviy tibbiy-tarixiy tadqiqotlar tahlil qilindi. XIX–XX asr jarrohlik kashfiyotlari, xususan, 1846 yil Morton tomonidan efir narkozi joriy etilishi va Listerning antiseptika nazariyasi tarixiy manbalar asosida qayta ko‘rib chiqildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, solishtirish, tarixiy ketma-ketlikni aniqlash va manbalarni qiyosiy o‘rganish metodlari qo‘llanib, jarrohlikning bosqichma-bosqich rivoji zamonaviy operatsion texnologiyalar bilan bog‘liq holda baholandi.

Natijalar: Transplantatsiya tarixida ilk amaliyotlar teri ko‘chirib o‘tkazishdan boshlangan. Miloddan avvalgi II asrda hind jarrohi Sushruta burunni tiklashda avtotransplantatsiya usulidan foydalangan. Keyinchalik italiyalik jarroh Gasparo Tagliacozzi muvaffaqiyatli teri transplantatsiyasini amalga oshirdi. Zamonaviy transplantatsiya esa 1883 yilda shveysariyalik jarroh Teodor Kocher tomonidan qalqonsimon bez to‘qimasini ko‘chirib o‘tkazish bilan boshlandi. U qalqonsimon bezni to‘liq olib tashlash oqibatida paydo bo‘ladigan gormon yetishmovchiligini bemorga bez to‘qimasini qayta implantatsiya qilish orqali bartaraf etgan. Bu tibbiyot tarixida birinchi organ transplantatsiyasi sifatida qayd etilgan. Transplantatsiya fani XX asr boshlaridan boshlab tez rivojlandi. 1905 yilda Eduard Zirm tomonidan dunyoda ilk bor shox parda muvaffaqiyatli ko‘chirildi. 1954 yilda Jozef Myurrey bir egizakdan boshqasiga buyrakni muvaffaqiyatli ko‘chirib, transplantologiya tarixida burilish yasadi. 1960–1970 yillar murakkab organlar transplantatsiyasi rivojlangan davr bo‘lib, Jeyms Hardy – birinchi o‘pka, Kristiaan Barnard – birinchi yurak, Tomas Starzl esa jigar transplantatsiyasining asoschisi.



sifatida tanildi. 1970-yilda Robert White maymun boshini ko'chirib o'tkazishga muvaffaq bo'lgan, biroq bu amaliyot klinik amaliyotga tatbiq etilmagan. Birinchi bor to'liq odam qo'li 1998 yili 23 sentyabrda Fransiyaning Lion shahrida doktorlar Irl Evan va Jan-Mishel Dubernardlar tomonidan bajarilgan. Bemor yangi zelandiyalik Klint Xallam bo'lgan, operatsiya 14 soat davom etgan. Operatsiyadan so'ng Xallam tavsiya etilgan immunodepressant dorilarni qabul qilishdan bosh tortgan va 3 yildan so'ng qo'l ajralib chiqqan va bemor hoxishi bilan amputatsiya qilingan. O'zbekistonda transplantologiya 1972 yilda professor Sobir Ubaydullayev va professor R. Saidov tomonidan amalga oshirilgan ilk buyrak transplantatsiyasidan boshlandi. Vosit Vohidovich Vohidov (1917–1994) — O'zbekistonning yirik jarrohi, Fanlar akademiyasi akademigi va xizmat ko'rsatgan fan arbobi. Uning ilmiy faoliyati ko'krak va qorin bo'shlig'i a'zolari, yurak–tomir kasalliklari diagnostikasi va jarrohlik davolash usullarini takomillashtirishga bag'ishlangan. Vohidov O'zbekistonda birinchi bo'lib yurak, o'pka, qon tomirlar va qizilo'ngachda murakkab operatsiyalarni amalga oshirgan. U 1971 yildan Jahon jarrohlar assotsiatsiyasi a'zosi. 2025 yil 26 sentyabrda Akademik V.Vohidov nomidagi markazda “Vohidov o'qishlari – 2025” xalqaro konferensiyasi o'tkazilib, u zamonaviy jarrohlik innovatsiyalariga bag'ishlandi. 1980-yillardan boshlab ko'z (shox parda) transplantatsiyasi muntazam yo'lga qo'yildi. Mustaqillik yillarida soha yangi bosqichga ko'tarildi: 2017–2018 yillarda professor Mirzohid Abdug'aniyev va Baxtiyor Kamilov jigar transplantatsiyasini, 2018 yilda esa professor Ravshanbek To'laganov O'zbekiston tarixidagi ilk yurak transplantatsiyasini amalga oshirdi. Bosh (kalla) transplantatsiyasi esa hanuzgacha ilmiy bahslar markazida bo'lib, Demixovning hayvonlardagi tajribalari va Kanavero–Ren Xiaoping loyihalari mavjud bo'lsa-da, amaliy natija hali qayd etilmagan. Ushbu tarixiy jarayonlar transplantologiyani murakkab, ammo hayotni saqlab qolishga xizmat qiluvchi ulkan yo'nalish ekanini, O'zbekiston esa dunyo tajribasi bilan hamnafas rivojlanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa: Jarrohlikning taraqqiyot yo'li - inson aql – zakovati, jasorati va ilmga bo'lgan ishtiyoqining timsolidir. Qadimiy tajribalardan tortib bugungi yuqori texnologiyalargacha bo'lgan yo'l inson hayotini saqlab qolish va uzaytirish yo'lida davom etmoqda. Jarrohlik tarixi - bu insoniyatning og'riqqa, jarohatga va o'limga qarshi kurash tarixidir. Shu bois ushbu mavzu tibbiyot fanining poydevorini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sushruta. Sushruta Samhita. Varanasi: Chowkhamba Sanskrit Series, 2008.
2. Hippocrates. On Surgery and Other Medical Works. Harvard University Press, 1998.
3. Ibn Sino. Al-Qanun fi't-tibb. Tahrir qilingan nashr. Cairo: Al-Maktaba Al-Kulliyaya, 1987.
4. Galen. On the Natural Faculties. Oxford University Press, 2003.



5. Porter, R. The Greatest Benefit to Mankind: A Medical History of Humanity. London: Harper Collins, 1997.

6. Gawande, A. Complications: A Surgeon's Notes on an Imperfect Science. Picador, 2003.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Transplantologiya tarixi bo'yicha rasmiy hisobotlar. — Toshkent, 2018.

8. Tursunova G. B. Tibbiyotda ma'naviyat masalalari, shifokor ma'naviyati //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 5. – C. 790-793.

